

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATN YARATISH KO'NIKMASINI
RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Muhabbat Maxmudova

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi mahmudovamuhabbat78@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinfda matn yaratish o'quvchilarga mustaqil fikrlash, mantiqiy fikr yuritish va nutq madaniyatini rivojlantirishga yordam beradigan muhim jarayon ekanligi, bu jarayon orqali o'quvchilar o'z fikrlarini aniq ifodalash, tizimli fikrlash, yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga o'rgatilishi amaliy ishlar bilan izohlangan.

Kalit so'zlar: yozma nutq, og'zaki nutq, matn yaratish, tafakkur, tasavvur, ijodkorlik, mustaqil fikrlash.

Аннотация: В этой статье рассматривается, что создание текста в начальной школе является важным процессом, который помогает учащимся развивать самостоятельное мышление, логическое рассуждение и культуру речи. Через этот процесс ученики учатся четко выражать свои мысли, систематически мыслить и развивать навыки письменной и устной речи, что объясняется на примерах практических занятий.

Ключевые слова: письменная речь, устная речь, создание текста, мышление, воображение, креативность, самостоятельное мышление.

Annotation: This article discusses that text creation in primary school is an important process that helps students develop independent thinking, logical reasoning, and speech culture. Through this process, students learn to express their thoughts clearly, think systematically, and develop skills in both written and oral speech, which is explained through examples of practical activities.

Key words: written speech, oral speech, text creation, thinking, imagination, creativity, independent thinking.

Matn yaratish – bu o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ifodali va aniq so'zlashga o'rgatishning muhim jarayonidir. Boshlang'ich sinfda matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilarning til va nutq madaniyatini rivojlantirishda asosiy o'rin tutadi. Ushbu jarayon o'quvchilarning o'z fikrlarini ifodalashga, mantiqiy va tizimli fikr yuritishga, yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini mustahkamlashga ko'maklashadi. Bu esa, kelajakda murakkab matnlarni tushunish va yaratish uchun zamin hozirlaydi. Matn yaratish ko'nikmasi nafaqat tilni mukammal bilish, balki o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga ham yordam beradi. Matn yaratish jarayoni davomida o'quvchi quyidagi ko'nikmalarni rivojlantiradi:

Fikrni aniq ifodalash– o'quvchilar matn yaratishda o'z fikrlarini aniq va ravon ifodalashni o'rganadilar.

Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning nutq madaniyatini oshiradi.

Matn yaratish jarayonida o'quvchilar fikrlarini mantiqiy tartibda joylashtirishni o'rganadilar.

Mantiqiy aloqalar, sabab-oqibat munosabatlari va fikrlarning ketma-ketligi o'quvchining fikrlash tizimini shakllantiradi. Matn yaratish o'quvchilarda ijodiy tafakkur va tasavvurni rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchi yangi g'oyalar yaratishga, muammolarni yechishga va yangi nuqtayi nazardan fikrlashga o'rganadi.

O'quvchilar nutqini o'stirish ularda aniq ko'nikmalarni hosil qilish demakdir⁵³.

Matn yaratish jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini yozma ravishda ifodalashga, yozma nutq madaniyatini oshirishga erishadilar. Bu ko'nikmalar, o'z navbatida, o'quvchilarga kelajakda yozma ishlarni bajarishda qulaylik yaratadi.

Boshlang'ich sinfda matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishda o'quvchilarga yozish faoliyatini samarali tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarga matn yozish jarayonida qanday qilib fikrlarni tizimli ravishda ifodalash, so'zlarni to'g'ri tanlash va jumalarni to'g'ri tuzish ko'nikmalarini o'rgatish kerak.

Bu o'quvchilarning yozma nutqini takomillashtiradi va kelajakda mustaqil ishlash imkoniyatini yaratadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'z fikrlarini ifodalashda erkinlik va mustaqillik muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarga matn yaratishda o'z fikrlarini izohlash, shuningdek, o'quv materialiga asoslangan holda yangi fikrlarni yaratish imkoniyatlari berilishi kerak. Bu o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradi.

O'quvchilarning yozgan matnlarini tahlil qilish va baholash jarayoni, ularning nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Tahlil qilish, o'quvchining matn yaratish jarayonida yuzaga kelgan xatoliklarni aniqlashga va ularni to'g'rilashga yordam beradi. Shuningdek, baholash jarayoni o'quvchilarga o'z ishlarini o'rganish va yaxshilash imkoniyatini yaratadi.

Matn yaratishda o'quvchilarga matnning rejasini tuzish, uni to'g'ri tuzish va yozma ishlarga tayyorlash ko'nikmasini o'rgatish juda muhimdir. O'quvchilarga matnning boshlanishi, o'rta qismi va xulosasi qanday bo'lishi kerakligini tushuntirish va amaliy mashg'ulotlar orqali shakllantirish zarur.

Bu jarayon, o'quvchilarga mantiqiy fikr yuritish va matnning tuzilishini to'g'ri tashkil etish ko'nikmasini beradi.

O'quvchilarga matnni yozib bo'lgach, uni qayta ko'rib chiqish va o'z-o'zini tekshirishni o'rgatish zarur. O'z-o'zini tekshirish orqali o'quvchilar xatoliklarni aniqlash, matnni to'g'rilash va yaxshilashni o'rganadilar.

Bu ko'nikma yozma ishlar sifatini oshiradi va o'quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinfda matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishda turli metodikalar va amaliy mashg'ulotlar muhim rol o'ynaydi. Quyidagi metodlarni qo'llash o'quvchilarning matn yaratish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi:

1. O'quvchilarga tasavvur qobiliyatini rivojlantirish va ijodiy fikrlashni shakllantirish uchun hikoyalar yozish va ular bo'yicha so'zlash ishlari o'tkazish.

⁵³ Qosimova Q va boshq. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – T., 2018.

2. O'quvchilarga fikrlarni ajratish va guruhlash orqali matn yaratishda tartibni saqlashni o'rgatish.

O'quvchilarga guruhlarda ishlash va birgalikda matn yaratishni o'rgatish, shu orqali jamoaviy fikrlash va hamkorlikni rivojlantirish. Matn yaratishda dialog yoki munozara orqali o'quvchilarga muloqotda bo'lishni va o'z fikrlarini ifodalashni o'rgatish

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish – bu ularning fikrlash tizimini rivojlantirish, nutq madaniyatini oshirish va ijodiy salohiyatini ochib berish jarayonidir. Shu bois, o'quvchilarga matn yaratishning barcha bosqichlari, ya'ni rejalashtirish, tuzish, tahlil qilish va baholash jarayonlarida to'g'ri yo'nalishlar va metodlarni qo'llash zarur. Bu jarayonning samarali tashkil etilishi, kelajakda o'quvchilarning yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarining yuqori darajaga erishishiga xizmat qiladi. Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qitilayotgan o'qish savodxonligi, ona tili darslik kitoblarda ham matn tuzish, rasm asosida hikoya tuzish, matnni mantiqiy ketma ketlik asosida davom ettirish kabi topshiriqlar va mashqlar asosida o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, so'z boyligini oshirish asosiy maqsad sifatida ko'zda tutilgan. Quyida ana shunday mashqlardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz.

1-sinf “O'qish savodxonligi” darsligida “O'zbekiston-ozod diyori” mavzusida topshiriqlar asosida o'quvchilar og'zaki nutqlarini rivojlantiruvchi savollar berilgan.

1.Siz Vatanimizni qanday so'zlar bilan ta'riflaysiz?

2.O'zbekiston - ozod diyori deganda nimani tushundingiz. Fikringizni og'zaki bayon eting?

“Vatan himoyachilari” mavzusidan topshiriqlar: savollarga javob bering.

1. 14-yanvar qanday kun? Matnni o'qing va so'zlab bering.

2. Kimlarni vatan himoyachilari deb atash mumkin?

3. Siz o'zingizni vatan himoyachisi deb bilasizmi? Bu savollarga javob berish orqali o'quvchilarning qobilyatlari oshadi. Rasmlarga qarab ijodiy fikrlash orqali matn tuzish bilim, ko'nikma, malakalari oshib boradi.

2-sinf “O'qish savodxonligi” darsligidagi “Yoz seni sog'indik” mavzusida ham o'quvchilarni matn tuzish qobilyatlarini rivojlantiruvchi topshiriqlar berilgan.

1-topshiriq.

1.Rasm asosida kichik matn tuzing.

2.Tuzgan matningizga sarlavha toping. Ushbu topshiriq orqali o'quvchilar darslikda berilgan rasm asosida matn tuzadilar. Matn mazmuniga mos sarlavha topadilar.

2-topshiriq.

1.Yoz faslida tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi. Matn tuzing. Bu topshiriqda o'quvchilar yoz faslida tabiatda bo'ladigan o'zgarishlar haqida o'z fikrlarini yozma matn tuzish orqali bayon etadilar.

4-sinf “Ona tili” darsligida asos va qo'shimchalarni aniqlash mavzusidagi 117-mashqda berilgan topshiriqlar bilan tanishamiz.

1. “Bizning maktab” mavzusida matn tuzib daftaringizga yozing. Bu topshiriqda o'quvchilar o'zlari bilim olayotgan maskan haqida matn tuzadilar va daftarga yozma bayon

etadilar. Darslikdagi “So‘z turkumlari” mavzusida berilgan 119-mashqda ham o‘quvchilarni ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi savollar berilgan.

1. Berilgan rasm asosida kichik hikoya tuzing.

2. Hikoyaga sarlavha qo‘ying.

Ushbu darslikdagi 106-mashqda matn tuzishga doir quyidagi topshiriqlar berilgan.

1. Rasm asosida besh-oltita gapdan iborat matn yozing.

2. Unga sarlavha qo‘ying. Gaplardagi o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalari bor so‘zlarning tagiga chizing. Ushbu topshiriqda o‘quvchilar “Uy loyihasi” mavzusida tasvirlangan rasm asosida matn tuzadilar. Ushbu darslikda berilgan 135-mashqda “Kitob-mening do‘stimsan” mavzusida matn yozing topshirig‘i berilgan. O‘quvchilar mavzu asosida matn tuzadilar.

Kitob — mening do‘stimsan

Kitoblar — bu ajoyib dunyo, ular bizni yangi bilimlar bilan tanishtiradi va hayotimizni boyitadi. Kitoblar bizning do‘stlarimiz bo‘lishi mumkin, chunki ular bizga yangi fikrlar, g‘oyalar va hissiyotlar beradi. Kitob o‘qish, xuddi do‘stingiz bilan vaqt o‘tkazgandek, ko‘plab yangi narsalarni kashf etishga yordam beradi.

Kitoblarni o‘qish orqali biz o‘zimizni rivojlantiramiz. Kitoblar bizni yaxshi inson bo‘lishga undaydi. Har bir kitobda turli qahramonlar, o‘zgarishlar va sarguzashtlar bo‘ladi. Masalan, ba‘zi kitoblarda jasur qahramonlar yovuz kuchlarga qarshi kurashadi, ba‘zilarida esa do‘stlik va samimiyat haqida gapiriladi. Kitoblar bizga shunchaki hikoya qilishdan tashqari, hayotimizga qanday yaxshiliklar kiritishni o‘rgatadi.

Ushbu darslikdagi 143-mashqda esa “Hunarli kishi xor bo‘lmas” mavzusida matn yozish topshirig‘i berilgan. “Hunarli kishi xor bo‘lmas” degan gap quyidagilarni anglatadi: agar biror kishi o‘ziga kerakli hunarni o‘rganib, yaxshi bilsa, u hech qachon qiyin holatga tushmaydi.

Chunki hunarli odam o‘z ishini topa oladi, o‘zini boqishi va boshqalarga yordam berishi mumkin.

Masalan, rasm chizishni, oshpazlikni yoki qo‘l san‘ati qilishni o‘rgansang, sen doimo o‘z ishingni bilasan va boshqalar seni hurmat qiladi. Hunar turlari juda turli-tuman bo‘lib, usta, duradgor, quruvchi, chilangar, kosib, tikuvchi, sartarosh, soatsoz shular jumlasidandir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirish ularning yozma nutqini rivojlantirish bilan birga, fikrlarni mantiqiy va tizimli ravishda ifodalashni ham o‘rgatadi. Bu ko‘nikmalarni shakllantirishda o‘qituvchi muhim rol o‘ynaydi, chunki u o‘quvchilarga motivatsiya beradi, ularga o‘z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatini yaratadi. Matn yaratish jarayoni o‘quvchilarning kreativlik, mantiqiy fikrlash va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi, bu esa kelajakda ular uchun muhim hayotiy ko‘nikmalarga aylanishi mumkin.

Xulosa. Boshlang‘ich ta‘limda matn yaratish ko‘nikmasini rivojlantirish o‘quvchilarni yozma nutqda mukammal bo‘lish, fikrlarini aniq ifodalash, ijodiy fikrlash va muloqotda samarali bo‘lish kabi ko‘nikmalarni o‘rgatadi. Bu ko‘nikmalar o‘quvchilarning nafaqat akademik, balki hayotdagi muvaffaqiyatlariga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun matn yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish boshlang‘ich ta‘lim jarayonida alohida e‘tibor qaratish lozim bo‘lgan muhim jihatdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qosimova Q va boshq. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – T. 2018.
2. Yuldasheva D. Ona tili. 1-sinf. 2-qism. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T. 2023.
2. Aydarova U. Azizova N. O'qish savodxonligi. 1-sinf. 1-qism. Umumiy o'rta maktablari uchun darslik. T. 2023
4. Toirova M.E. Ona tili. 4-sinf 1-qism. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T. 2023.
4. Bazarova, D. (2022). Variability of phraseological units. *Science and innovation*, 1(B7), 483.
5. Bozorova, D. B. (2015). Some notes of variability in the Uzbek linguistics. *Theoretical & Applied Science*, (4), 135-138.
6. Bazarova, D. B. (2023). On the use of alternative words. *American Journal Of Philological Sciences*, 3(05), 48-51.
7. Bazarova, D. (2024). Ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda "o'zbek tilida so'z tarkibi" mavzusini o'rgatish tajribasidan. O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti, 1(01), 88-90.
8. Шерали кизи ассистент-преподаватель, М. А., & Бахора, Э. О. (2024). Сравнение онегина и обломова: два пути «лишних людей». *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*, 3(11), 6-12.
9. Аликулова, М. (2024). Лингвистические особенности повестей аи куприна 1890-1910 годах. *Намкор konferensiyalar*, 1(2), 502-504.
10. Аликулова, М. (2023). Использование эпитетов в произведениях аи куприна. *Scientific progress*, 4(5), 387-390.
11. Aliqulova, M. (2024). Анализ изучения языка и стиля произведений аи куприна. O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti, 1(01), 82-87.
12. Аликулова, М. Ш. (2023). Лексико-семантические особенности рассказов александра куприна. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(12 Part 2), 172-174.
13. Makhmudova Mukhabbat. (2024). THE USE OF PARONYMOUS WORDS IN SPEECH. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(12), 196-199.